Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.161.1
FILOLOGIYA

RUS VA O‘ZBEK BILINGVAL BOLALAR NUTQIDA INTERFERENSIYA HODISASINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Xumora Shavkatjonovna Muslimova*
Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich mustaqil izlanuvchi
✉ samirabegim87@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda rus va o‘zbek bilingval bolalar nutqida kuzatiladigan interferensiya hodisasi psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Rus va o‘zbek tillarining tipologik farqlari, fonetik, leksik hamda grammatik interferensiyaning yuzaga kelish omillari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, interferensiyaning bolalar leksikoni shakllanishiga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar

bilingvizm, interferensiya, psixolingvistika, leksikon, rus tili, o‘zbek tili, bilingval bolalar.

DOI: 10.5281/zenodo.21743019

Kirish.

Bolalar bilingvizmi zamonaviy tilshunoslik, psixolingvistika hamda kognitiv lingvistika sohalarida faol o‘rganilayotgan dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bilingval bolalarda uchraydigan asosiy qiyinchiliklardan biri interferensiya hodisasidir. Interferensiya ikki til tizimining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi va grammatik, fonetik hamda leksik darajalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Rus va o‘zbek tillarini bir vaqtda o‘zlashtirayotgan bolalar nutqida mazkur hodisa ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu hodisa bolaning nutqida so‘z tartibi, qo‘shimchalar qo‘llanishi va talaffuzda ayrim o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, rus va o‘zbek tillarining grammatik tuzilishi bir-biridan farq qilgani uchun bola ba’zan bir tilning qoidalarini ikkinchisiga ko‘chirib qo‘llaydi. Bunday holatlar til rivojlanishining dastlabki bosqichlarida tabiiy hisoblanadi, chunki bola ikkala til tizimini ham bir vaqtning o‘zida shakllantiradi. Shuning uchun interferensiyani faqat xato sifatida emas, balki bilingval rivojlanishning muhim bosqichi sifatida ham baholash zarur. Hamers va Blanc bilingvizmni ikki yoki undan ortiq tillardan turli kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalana olish qobiliyati sifatida izohlaydilar [1; 52- b.]. Shu sababli bilingval bolalar nutqida kuzatiladigan tillararo ta'sir tabiiy rivojlanish jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Olimlarning fikricha, tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir bilingval rivojlanishning tabiiy tarkibiy qismi bo‘lib, interferensiya ushbu jarayonning muhim ko‘rinishlaridan biridir .Shu bois, bilingval bolalar nutqini o‘rganishda interferensiya hodisasining sabablari va ko‘rinishlarini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Interferensiya — bu ikki til bir-biriga ta’sir qilganda yuzaga keladigan hodisa bo‘lib, unda bir tilning qoidalari ikkinchi til nutqiga aralashib ketadi. Mazkur hodisaning mohiyati shundan iboratki, bola bir tilda gapirayotganda ikkinchi tilning so‘z tartibi, talaffuzi yoki grammatik shakllaridan foydalanib yuborishi mumkin. Bu holat bilingval bolalarda juda tabiiy kuzatiladi, chunki ular ikki tilni bir vaqtda o‘zlashtiradilar. Aynan shu jarayon orqali bola har ikki tilni farqlashni, ularning qoidalarini asta-sekin ajratib borishni o‘rganadi. U. Weinreich interferensiyani ikki tilning o‘zaro ta’siri natijasida bir til birliklarining ikkinchi til nutqiga ko‘chishi sifatida

izohlaydi. [2; 112- b.]. Psixolingvistik nuqtai nazardan interferensiya mental leksikondagi birliklarning faollashuvi bilan bog‘liq. Mazkur ta'rif bugungi kunda ham til kontaktlari va bilingvizm bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Rus va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tipologik farqlar va interferensiya

Bilingval bolalarda uchraydigan asosiy qiyinchiliklardan biri interferensiya hodisasidir. Ayniqsa, o‘zbek va rus tillari o‘rtasidagi tipologik farqlar bu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Rus tili flektiv til hisoblanib, grammatik ma’no ko‘pincha so‘zning ichki o‘zgarishi orqali ifodalanadi. O‘zbek tili esa agglutinativ til bo‘lib, grammatik ma’nolar ketma-ket qo‘shimchalar yordamida ifodalanadi. Shu sababli ikki til tizimining o‘zaro ta’siri bilingval bolalar nutqida fonetik, leksik, grammatik va sintaktik interferensiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Morfologik interferensiya

Morfologik interferensiya ikki tilning grammatik tizimlari o‘rtasidagi farqlar bilan bog‘liq. O‘zbek bilingvallari uchun rus morfologiyasining eng murakkab jihatlaridan biri grammatik jins va jonli–jonsizlik kategoriyalaridir, chunki bu kategoriyalar rus tilida gapdagi moslashuv qoidalariga bevosita ta’sir qiladi. O‘zbek tilida grammatik jins mavjud emasligi sababli bilingval bolalar ko‘pincha **«melkiy rediska»**, **«kompyuter ne rabotala»** kabi xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Ayniqsa, o‘rta jinsni o‘zlashtirish qiyin bo‘ladi, chunki u o‘zbek tilining grammatik tizimida mavjud emas.

Kelishik kategoriyasi ham interferensiyaning muhim manbalaridan biridir. Rus tilida kelishiklar flektiv tizim orqali ifodalansa, o‘zbek tilida ular aniq va o‘zgarmas qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi. Natijada bilingval bolalar rus tilidagi boshqaruv va kelishik shakllarini qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuningdek, rus tilidagi fe’lning tur va nisbat kategoriyalari ham o‘zbek tilidagi mos shakllardan farq qilgani sababli o‘zlashtirish jarayonida interferensiya kuzatiladi. Demak, morfologik tizimlarning farqlanishi bilingval bolalar nutqida interferensiyaning eng ko‘p uchraydigan sabablaridan biri hisoblanadi.

Sintaktik interferensiya

Sintaktik interferensiya gap qurilishidagi farqlar bilan bog‘liq. Rus tilida grammatik munosabatlar asosan fleksiya yordamida ifodalansa, o‘zbek tilida qo‘shimchalar va so‘z tartibi muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli bilingval bolalar ba’zan bir tilning sintaktik modelini ikkinchi tilga ko‘chiradilar. Natijada gap bo‘laklarining joylashuvi yoki boshqaruv qoidalari buzilishi mumkin. Bundan tashqari, rus tilidagi shaxssiz gaplar ham o‘zbek bilingvallari uchun murakkab hisoblanadi, chunki bunday konstruksiyalar o‘zbek tilida boshqa usullar bilan ifodalanadi. Natijada gap tuzilishidagi bunday farqlar sintaktik interferensiyaning yuzaga kelishiga olib keladi.

Leksik interferensiya

Leksik interferensiya bir tildagi so‘z yoki iboralarning ikkinchi til nutqida qo‘llanishi bilan namoyon bo‘ladi. Bilingval bolalar ayrim hollarda kerakli leksik birlikni eslay olmaganda boshqa til so‘zidan foydalanadilar yoki ikki til birliklarini bir nutq ichida aralashtirib yuboradilar. Bu holat, ayniqsa, har ikki tilda ma’nosi yaqin, ammo qo‘llanishi turlicha bo‘lgan birliklarda ko‘proq uchraydi. Mazkur hodisa bolaning mental leksikonida ikkala til birliklari parallel faollashayotganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, leksik interferensiya bilingval bolaning mental leksikonida ikkala til birliklari o‘zaro bog‘langan holda saqlanishini ko‘rsatadi.

Fonetik interferensiya

Fonetik interferensiya tovush tizimlarining farqlari bilan bog‘liq. O‘zbek tilida rus tilidagi ayrim undosh va unli tovushlar faol qo‘llanilmagani sababli ular talaffuzda almashtirilishi yoki soddalashtirilishi mumkin. Natijada ayrim ruscha so‘zlar o‘zbek tilining fonetik xususiyatlari asosida talaffuz qilinadi. Bundan tashqari, rus va o‘zbek tillarining fonetik hamda grafik tizimlaridagi farqlar ham yozuv va talaffuz jarayoniga ta'sir ko‘rsatadi. Ayrim hollarda bola bir tilning fonetik modelini ikkinchi tilga ko‘chirishi mumkin. Fonetik interferensiya ayniqsa nutq rivojlanishining dastlabki bosqichlarida yaqqol namoyon bo‘ladi va til tajribasi ortishi bilan asta-sekin kamayib boradi.

Yuqorida keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, bilingval bolalar nutqida kuzatiladigan xatolar ko‘pincha nutq buzilishi emas, balki tillararo ta’sir natijasida yuzaga keladigan tabiiy interferensiya hisoblanadi. Uning asosiy sabablari sifatida ikki tilning grammatik tizimlari o‘rtasidagi farqlar, dominant tilning ta’siri,

til muhitining yetarli emasligi hamda bolaning ikkala til tizimini bir vaqtning o‘zida shakllantirayotganligi ko‘rsatiladi. Shu sababli interferensiyani bilingval rivojlanishning tabiiy bosqichi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Psixolingvistik jihatlar

Krashen (1989) tilni o‘zlashtirish (*acquisition*) va tilni o‘rganish (*learning*) o‘rtasida farq mavjudligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tilni o‘zlashtirish tabiiy muloqot jarayonida shakllanadi, shu sababli bilingval bolalarda ikki til tizimi bir vaqtning o‘zida faol ishlaydi va bu holat interferensiyaning yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [3; 95- b.]. Cumminsning umumiy lisoniy baza (**Common Underlying Proficiency**) nazariyasiga ko‘ra, bilingval bolalarning ikkala tili yagona kognitiv asosga tayanadi. Shu sababli bir tilni o‘zlashtirish ikkinchi tilning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi [4; 227- b.]. Bialystokning tadqiqotlari esa bilingvizm jarayonida bolaning diqqatni boshqarish, nazorat qilish hamda tilni tanlash kabi ijro funksiyalari faol rivojlanishini ko‘rsatadi [5; 3 -11- b.]. Psixolingvistik nuqtai nazardan qaraganda, bilingval bolaning mental leksikonida ikkala til birliklari o‘zaro bog‘liq holda saqlanadi va zarurat tug‘ilganda parallel ravishda faollashadi. Natijada bola kerakli leksik birlikni tanlash jarayonida ayrim hollarda boshqa til elementlaridan foydalanishi mumkin. Shu bois interferensiya faqat nutqiy xato emas, balki bilingval tafakkur va nutq faoliyatining tabiiy psixolingvistik xususiyati sifatida baholanadi. Mazkur yondashuv interferensiyani psixolingvistik nuqtai nazardan izohlash va bilingval bolalar nutqini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bilingval bolalar nutqida kuzatiladigan interferensiya ikki til tizimining o‘zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan tabiiy psixolingvistik hodisa hisoblanadi. Rus va o‘zbek tillarining tipologik farqlari fonetik, leksik hamda grammatik interferensiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Biroq bunday holatlar nutq buzilishi emas, balki bolaning ikki tilni o‘zlashtirish jarayonining tabiiy bosqichi sifatida baholanishi lozim. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bilingval bolalarning mental leksikonida ikkala til birliklari o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Shu sababli interferensiyani o‘rganish nafaqat til kontaktlari mexanizmlarini tushunishga, balki bilingval bolalar nutqini baholash, samarali ta'lim metodlarini ishlab chiqish hamda til rivojlanishidagi individual xususiyatlarni aniqlashga ham xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda eksperimental tadqiqotlar olib borish interferensiya jarayonining psixolingvistik xususiyatlarini yanada chuqurroq ochib berishga imkon yaratadi. Mazkur tadqiqot natijalari bilingval bolalar nutqini baholash, ta'lim metodikasini takomillashtirish hamda kelgusidagi eksperimental psixolingvistik tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hamers, J. F., & Blanc, M. H. A. (2000). *Bilinguality and Bilingualism* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. – 52b
2. Weinreich, U. (1953). *Languages in Contact: Findings and Problems*. New York: Linguistic Circle of New York. – 112b
3. Krashen, S. D. (1989). *Language Acquisition and Language Education: Extensions and Applications*. London: BPCC Wheatons Ltd. – 95b
4. Bialystok, E. (2010). *Bilingualism: The Good, the Bad, and the Indifferent. Bilingualism: Language and Cognition*, 12(1). – 11b
5. Cummins, J. (1979). *Linguistic Interdependence and the Educational Development of Bilingual Children. Review of Educational Research*, 49(2). – 227b